


Termiz shahrida arzonlashtirilgan yarmarkadagi hamda bozordagi narxlar barqarorligi doimiy nazoratda



Termiz shahrida arzonlashtirilgan yarmarkadagi hamda bozordagi narxlar barqarorligi doimiy nazoratda

Mazkur yarmarka shahar aholisi uchun qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini hamyonbop narxlarda sotib olish imkonini bermoqda.

Yarmarkada mahsulotlarni uzluksiz ta'minlash maqsadida ta'minotchi korxonalar, agrofirma va fermer xo'jaliklari tomonidan shahrimizdagi bozorlarga 30 turdan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari yetkazilib berilmoqda.

Bu kabi tashabbuslar aholiga arzon va sifatli mahsulotlarni yetkazish bilan birga narxlarning sun'iy va asossiz ravishda oshirilishiga yo'l qo'ymaslikka sabab bo'ladi.

Dehqon bozoridagi mahsulotlarning asossiz ravishda oshirilmasligi uchun Termiz shahar hokimi tomonidan tegishli ma'sullarga vazifalar berilib, ijrosi doimiy nazoratga olingan.

